

FRANS PETER SHUBERTNING “TUGALLANMAGAN” SIMFONIYA ASARI YOZILISH TAHLILI VA MAZMUNI

Abdusattorova Zuhraxon Abdusattor qizi

Farg‘ona davlat universiteti

Pedagogika-psixologiya va

san‘atshunoslik fakulteti

“Musiqqa ta‘lim” yo‘nalishi

I-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada kompozitor Frans Peter Shubertning hayoti va ijodi, musiqa janriga qo‘shgan hissasi, yozgan simfonik asarlari, “Tugallanmagan” simfoniya asari tahlili va mazmuni to‘g‘risida so‘z boradi.*

Kalit so‘zlar: *simfoniya, janr, romantizm, lirik- drammatik, konvikt, romantik- simfonizm.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются жизнь и творчество композитора Франца Петера Шуберта, его вклад в музыкальный жанр, его симфонические произведения, а также анализ и содержание, Неоконченной симфонией.*

Ключевые слова: *симфония, жанр, романтизм, лирико-драматический, школа- интернат, романтический симфонизм.*

Vena kalssik maktabining buyuk namoyondasi, romantizm janrining ilk yirik kompozitorlaridan biri, Frans Peter Shubert 1797-yilda Vena yaqinidagi Lixtentel shahrida dunyoga kelgan. U hayotiy muvaffaqiyatsizliklar, ijtimoiy-siyosiy reaksiyalar davrida yashab ijod qilgan. Uning hayoti ziddiyatlarga to‘la bo‘lsada, ijodiy qiziqishlari musiqa san‘atida o‘z ifodasini topgan. Shubert lirik miniaturalarni, xalq hayoti manzaralarini, xalq turmushini, simfoniya va fortepiano miniaturalarining yangi romantik turini yaratgan.

Frans Shubertning otasi maktab o‘qituvchisi, onasi oddiy oiladan bo‘lgan. Oilada musiqani sevib tinglashgan, doimiy ravishda musiqa oqshomlari tashkil etishgan. Otasi violonchel, akalari turli xil musiqa cholg‘ularini ijro etishgan. Yosh kompozitordagi musiqiy qobiliyatni sezgan otasi va akasi Ignas, unga skripka va

fortepiano chalishni o'rgatishgan. Bolaligidan alt partiyalari ijrosi va torli asboblarda kvartetlarida ishtrok etgan. Faransning go'zal va yoqimli ovozi ham bor edi. U cherkov xo'riga qatnashar, u yerda murakkab yakkaxon partiyalarni ijro etgan. Ota o'g'lining muvaffaqiyatlaridan xursand bo'lardi. Frans o'n bir yoshga to'lganda uni Konvikt – cherkov qo'shiqlarini tayyorlash maktabiga berishgan.

O'quv yurtidagi ta'lim jarayoni bolaning musiqiy qobiliyatini rivojlantirgan, musiqaga bo'lgan qiziqishini shakillantirgan. Maktab orkestrida skripkachilar guruhida skripka chalgan, orkestrda drijorlik vazifasini ham ijro etgan. Orkestr repertuarlarida turli janrdagi musiqa asrlari ijro etilgan. Shubert ushbu janrdagi simfonik asarlar, uverturalar, kvartetlar, vokal asarlari bilan tanishgan. Unga Motsartning “Sol minor simfoniyasi”, Betxovenning musiqalari yuksak namuna bo'lgan. O'sha yillarning o'zidayoq Shubert o'z asarlari ustida ijod qila boshlagan. Uning dastlabki asarlari – fortepiano uchun fantaziya va qo'shiqlar bo'lgan. Yosh kompozitor zavq bilan berilib ijod qilagan, maktabdagi boshqa o'quv qo'llanmalari esa kompozitorda musiqaga qiziqish uyg'otgan. Boladagi musiqiy qobiliyat saroy kompozitori Salyerning e'tiborini tortadi. Uning qo'lida Shubert bir yil davomida shug'ullanadi. Vaqt o'tishi bilan Fransdagi musiqiy qobiliyat shiddat bilan rivojlanib borishi otasini ko'proq bezovta qilgan. Butun dunyoga mashhur bo'lgan musiqachilarning ijodiy yo'llari qiyin kechganligini yaxshi bilgan ota bolaning bunday taqdirga duchor bo'lishidan asrab qolmoqchi bo'lgan. Musiqa bilan haddan tashqari ko'p mashg'ul bo'lishiga qarshi bo'lgan. Biroq hech qanday ta'qiqlar boladagi iste'dodning rivojlanishiga to'siq bo'la olmagan.

Shubert Konvikt maktabi bilan hayrlashishga, erkinlikka chiqishga qaror qiladi. U o'zini musiqaga bag'ishlab, butun umri davomida u bilan yashashga intiladi. 1813-yili 28-oktyabrda o'zining birinchi simfoniyasi “Re major” ni yozib tugatadi. Shubert simfoniya partiturasining oxirgi sahifasiga “Xotima va tugatish” deya yozib qo'yadi. Bu simfoniyaning xotimasini hamda Konvikt maktabi tugallaganligini anglatadi.

Uch yil u o'qituvchiga yordamchi bo'lib ishlaydi, savod va dastlabki musiqiy predmetlardan dars bergan. Shunga qaramay uning musiqaga havasi, ijod qilish istagi tobora ortib borgan. Ayni mana shu maktabni tamomlagan yillaridan boshlab, 1814-yildan 1817-yilgacha, hamma narsa unga qarshi qaratilganday ko'rinsa-da, u hayratlanarli darajada o'z asarlarini yozib tugatgan. 1815- yilda Shubert o'zining

144 ta qo'shiq, 4 ta opera, 2 ta simfoniya, 2 ta messa, 2 ta fortepiano sonatasi va torli kvartet asarlarini yozib tugatadi.

Otasining o'g'liga kam oylikka ega bo'lishi va o'qituvchi qilish orzusi amalga oshmagan. Yosh kompozitor o'zini musiqaga bag'ishlash uchun qaror qabul qilib, maktabdagi o'qituvchilik ishini tark etgan. Shubertning taqdiri qanchalik qiyin ko'rinmasin, hayoti bunday bo'lishini tasavvur ham qilmagan edi. U o'z kundaliklarida "Haqiqiy do'stini topgan kishi baxtlidir" deb yozgan.

Shubert musiqalarni mahorat bilan tez yaratardi. Musiqiy g'oyalar unda uzluksiz tarzda paydo bo'lardi. Shu davrda Shubert o'zining mashhur ikki asari – "Go'zal tegirmonchi qiz" va "Tugallanmagan" simfoniya musiqa turkumlarini yaratadi. Kompozitor hayotining oxirgi o'n yillaridagi asarlari juda rang barang ifodalangan. U simfoniylar, fortepiano uchun sonatalar, kvartetlar, kvintetlar, trio, messalar, operalar kabi ko'plab qo'shiq va musiqalar yozgan. Biroq kompozitor tirikligida uning asarlari kam ijro qilingan. Shuning uchun ham asarlarining ko'p qismi qo'lyozmalarda qolib ketgan. O'z asarlarini nashr qilishga imkoni bo'lmaga. Kompozitor yigirma yetti yoshida do'sti Shoberga "Men o'zimni dunyodagi eng baxtsiz, abgor kishi deb bilaman..." deb yozadi.¹⁷ Bu kayfiyat so'nggi davr musiqasiqalarida ham o'z ifodasini topgan. Hayotining oxirgi yillarida u "Qishki yo'l" turkumini yaratadi. Bu asarda iztiroblar, chorasiz sog'in, ruhining azobli og'riqlarini ifoda etgan. 1828-yilda do'stlarining sayi harakatlari bilan Shubertning hayotidagi o'z asarlaridan iborat yagona konserti tashkil etiladi. Konsert katta muvaffaqiyat qozonadi, kompozitorga katta quvonch bag'ishlaydi, kelajak rejalari yanada xilma-xillashadi. Lekin sog'lig'i yomonlashib, organizimi og'ir kasllikni ko'tara olmasdan Shubert 1828-yil 19-noyabrda vafot etgan.¹⁸

Shubert birinchilardan bo'lib yangi turdagi romantik, lirik – drammatik simfoniylar yaratadi. "Tugallanmagan" si minor simfoniyasini Shubert o'zining iqtidori eng gullab yashnagan vaqtda, 1822-yilda yozgan. Bu tartib bo'yicha sakkizinchi simfoniya, yangi turdagi lirik-drammatik simfoniya bo'lib to'liq tugallangan asardir. Ushbu asar ikki qismda mujassamlashganligi sababli "Tugallanmagan" simfoniya nomini olgan. Birinchi qismda lirik kechinmalar fojiali

¹⁷ Bosh sahifa <https://www.ziyouz.com>. Chet el musiqa tarixi. <https://www.google.com/url?>

¹⁸ B.R.Yakubov. "Horijiy mamlakatlar musiqa adabiyoti". F.2005.

ta'sirchanlik bilan berilsa, ikkinchi qismidagi lirik kechinmalar, osoyishtalik, yorqin orzu-hayollarga yo'g'rilgan.

Birinchi qism Allegro moderato sonata shaklida yozilgan. Birinchi qism muqaddima mavzusi – simfoniyaning asosiy g'oyasini o'zida mujassamlashtirgan holda o'ziga hos epigraf bilan boshlanadi. Ekspozitsiya va reprizaga xoshiya sifatida u qolgan mavzular materillariga qarshi qo'yiladi. Muqaddima – bu mavzu lirik falasafiy mushohada bilan sadolanadi va rivojlanish qismida fojiaviy ta'sirchanlikka yuksaladi. Koda qismida esa dardli xarakterga ega bo'ladi. Birinchi qism mavzusini bayon etilishi o'ziga xos qo'shiq uslublari bilan daiqqatni o'ziga tortadi, klarnetlar va goboylar bu nafis, lirik g'amgin-o'ychang kuyni ijro etishadi. Yordamchi partiya ham qo'shiqqa yaqin. Bu mavzuni violonchellar quyuuq, yumshoq tembr bilan ijro etishadi. Mavzu klassik simfoniya xos bo'lmagan – sol major tonalligida sadolanadi. Ekspozitsiya mavzulari o'rtasida antagonizm (bir biriga mos kelmaydigan, quloqqa keskin eshtiladigan tovushlar) va ichki qarama- qarshilik yo'q. Ikkalasi ham qo'shiqqa yaqin, lirik mavzular to'qnashuvda emas, balki taqqoslashda berilgan. Rivojlov muqaddima materialida berilgan. Tez-tez keluvchi aksentlar, tovush kuchining keskin almashinuvi, notinchlik bilan urib turuvchi fon, shiddat, sadolanishda ulkan zo'riqish yaratadi. Keskinlikning eng cho'qqisida orkestr sadolanishi trombonlarning ijroga qo'shilishi tufayli kuchayadi. Ikkinchi davr o'ta keskin kechadi. Turli orkestr brikmlarida muqaddimaning ayrim ohanglari konon tarzida qayta ishlaydi, punktir ritmli yangi ifodali lavha kiritiladi. Kulminatsiyaning lahzasi re major va si minorning o'tkir kurashi bilan boshlanadi. Repriza, rivojlanishni boshqa tarafga burib yuborishi mumkin bo'lgan hech qanday yangilik kiritmaydi. Kodada muqaddima mavzusi oxirgi so'z sifatida qayg'uli sadolanadi.

Simfoniyaning ikkinchi qismi Andante con moto rivojsiz sonata shaklida yozilgan. Ikkala mavzusi ham ajoyib lirik tarzda sadolanadi. Ikkinchi qism shakl xususiyatlarini birlashtiruvchi, tugallangan ko'rinishda ifodalanib, musiqaning yangi romantik shakillarini yaratishga bo'lgan intilish sezilib turadi. Shubert simfoniylari romantik shaxsiy kechinmalarini aks ettiruvchi lirik mavzu bilan yo'g'rilgan. Ular o'zida butun romantizm san'atiga xos bo'lgan avtobiografik xususiyatlarni mujassamlashtiradi.

Xulosa qilib aytganda “Tugallanmagan” simfoniyasidan oldingi 1813-1818-yillar mobaynida yozgan simfoniyalarida Shubertning simfonik salohiyati qanday yetuklikka erishgani, qanday qilib uning simfonizimi shakillanganligini kuzatish mumkin. Lirik musiqa romantik simfonizimining muhim sifatlaridan biri bo‘lib, “Tugallanmagan” simfoniya romantik simfonizmga yangi yo‘nalishlarni dadil va yuksak darajada mukammal amalga oshirilganligining timsoli bo‘ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bosh sahifa <https://www.ziyouz.com>. Chet el musiqa tarixi. <https://www.google.com/url?>
2. Галацкая В. «Музыкальная литературы зарубежных стран» Вып 3. М.,2002.
3. B.R.Yakubov. “Horijiy mamlakatlar musiqa adabiyoti”. F.2005.